



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyun holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan oyga nisbatan **101 taga** oshgan.
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **4,8%** ni tashkil qildi.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **638 taga** oshgan.


2018 yil 1 iyul holatiga ro'y-hatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14918 taga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 470 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 % kamaygan hamda ularning soni 3 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 524 ta (3,8 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14198 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (23,9 %), Urganch (10,4 %), Xiva (9,9%) tumanlarida kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	14918	100	14198	100
Urganch sh.	3696	24,9	3390	23,9
Xiva sh.	1335	8,9	1283	9,0
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	732	4,9	712	5,0
Gurlan	887	5,9	852	6,0
Qo'shko'pir	854	5,7	832	5,9
Urganch	1513	10,1	1472	10,4
Xazorasp	1033	6,9	1001	7,1
Xonqa	1099	7,4	1073	7,5
Xiva	1488	10,0	1404	9,9
Shovot	731	4,9	687	4,8
Yangiariq	991	6,6	958	6,7
Yangibozor	559	3,8	534	3,8


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,2 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 0,6 % o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,1 % savdoda, 15,8 % sanoatda, 10,3 % qurilishda, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa hamda 29,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1110 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (274 ta), Urganch tumanida (147 ta) va Xiva shahrida (100 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (43 ta), Bog'ot (53 ta), Gurlan (54 ta) va Shovot (63 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (278 ta), sanoatda (197 ta), qurilishda (129 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (108 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (11 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (21 ta) va tashish va saqlashda (35 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyun holatiga.	2018 yil yanvar-iyun holatiga.
Jami:	1110	1035
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	108	129
Sanoat	197	283
Qurilish	129	86
Savdo	278	232
Tashish va saqlash	35	39
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	67	85
Axborot va aloqa	11	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'r-	21	27
Boshqa turlari	264	134

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p) hamda axborot va aloqada (-0,1 f.p.) kamayganligi, buning natijasida savdoda (+0,3 f.p), qurilishda (+0,3 f.p), sanoatda (+0,1 f.p), tashish va saqlashda (+0,1 f.p.), yashash va ovqatlanishda (+0,1 f.p.) va boshqa faoliyat turlarida (+0,2 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.07.2018 y.	01.07.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,2	-1,0
Axborot va aloqa	1,5	1,6	-0,1
Savdo	24,1	23,8	0,3
Qurilish	10,3	10,0	0,3
Sanoat	15,8	15,7	0,1
Tashish va saqlash	3,9	3,8	0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,6	7,6	0
Yashash va ovqatlanish	5,5	5,4	0,1
Boshqa turlari	29,1	28,9	0,2

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyul holatiga 11350 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4005 ta, oilaviy korxonalar – 1014 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6027 ta va boshqalar 304 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 52 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga yoki 10,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 43 tasi qo'shma korxonalar, 9 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar 12 ta (23,1 %i), Shovot tumani 11 ta (21,1 %) va Xiva shahar 6 ta (11,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xonqa tumani 1 ta (1,9 %) va Yangibozor tumani 1 ta (1,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Gurlan tumanida esa umuman yoqligi mazkur hududda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 36 ta (69,2 %), savdoda 8 ta (15,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (5,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (1,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta (1,9 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1 ta (1,9) va qurilishda 2 ta (3,9 %) hamda axborot va aloqada umuman yoqligi ma'lum boldi. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek eng kam ulushi esa aloqa faoliyat turiga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11278 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 2,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2737 tasi (24,3 %) Urganch shahriga, 1218 tasi (10,8 foizi) Urganch tumani, 1218 tasi (10,8 %) Xiva tumani, hamda 1169 tasi (10,4 foizi) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11278 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3399 tasi (30,1 %) – savdoda, 2224 tasi (19,7 %) - sanoatda, 1455 tasi (12,9 %) - qurilishda, 1063 tasi (9,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 772 tasi (6,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 543 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 243 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 192 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1387 tasi (12,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyun oylarida 933 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (247 ta), Urganch tumani (125 ta), Xiva shahrida (78 ta), Xonqa tumanida (69 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (30 ta), Bog'ot (50 ta), Gurlan (51 ta), Yangiariq (52 ta), tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (277 ta), sanoatda (197 ta), qurilishda (129 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (107 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (11 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (20 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 1054 tani tashkil etib, ulardan 1014 tasi yoki 96,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **34,0** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,5 % yoki 279 tasi sanoat, 26,7 % yoki 271 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,4 % yoki 217 tasi savdo, 10,0 % yoki 102 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,9 % yoki 19 tasi qurilish, 1,1 % yoki 11 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 % yoki 4 tasi tashish va saqlash, hamda 10,0 % yoki 101 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
 Statistika registrlari yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
 (0362) 224-65-11



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan